Abstract*. This article provides a comparative legal analysis of the models for introducing and applying English law in international financial centres, drawing on the experience of the Dubai International Financial Centre (DIFC), Abu Dhabi Global Market (ADGM), and Astana International Financial Centre (AIFC). In particular, it examines the legal systems that existed in the host states prior to the establishment of these centres, the constitutional and legislative foundations for the application of English law, the hierarchy of legal sources, and the status of judicial precedents. Based on the findings of the study, three models for the application of English law are identified: the autonomous-subsidiary model, the direct-dynamic model, and the mediated-adapted model. The author proposes that the application of English law in international financial centres should be viewed not as a transformation of the host state's national legal system, but as the establishment of a special legal regime. Such a regime operates within the framework of the relevant financial centre and applies to a specific territory and a defined range of legal relations. Drawing on foreign experience, the article also puts forward practical recommendations for the development of a legal model for the Tashkent International Financial Centre.*

Keywords*: international financial centre, English law, common law, special legal regime, hierarchy of legal sources, judicial precedent, legal pluralism*

Kirish

Xalqaro moliya markazlarining huquqiy muhitini shakllantirishda investorlar uchun tushunarli, barqaror va prognoz qilinadigan huquqiy tartibni yaratish alohida ahamiyatga ega. Shu maqsadda Dubay xalqaro moliya markazi (*Dubai International Financial Centre* – DIFC), Abu Dabi global bozori (*Abu Dhabi Global Market* – ADGM), Ostona xalqaro moliya markazi (*Astana International Financial Centre* – AIFC) va Qatar moliya markazi (*Qatar Financial Centre* – QFC) kabi markazlarda ingliz huquqining normalari, prinsiplari va institutlaridan foydalanishga asoslangan maxsus huquqiy rejimlar joriy etilgan. Huquqshunos T. Bell (2021) mezbon davlatning umumiy huquq tizimi doirasida *common law* qoidalari va institutlari amal qiladigan bunday maxsus yurisdiksiyalarni *common law zones* sifatida tavsiflaydi.

Ingliz huquqining mazkur markazlarda qo'llanishi yagona huquqiy model asosida amalga oshirilmaydi. Jumladan, ayrim markazlarda Angliya va Uels umumiy huquqi

hamda odil sudlov huquqi prinsiplari bevosita qo‘llanadigan huquq manbasi sifatida tan olingan. Boshqa markazlarda ingliz huquqi asosida ishlab chiqilgan ichki normativ hujjatlar asosiy huquq manbasi hisoblanib, *common law* qoidalari va sud pretsedentlaridan ushbu hujjatlarni sharhlash yoki ulardagi bo‘shliqlarni to‘ldirishda foydalaniladi. Shu sababli xalqaro moliya markazlarida ingliz huquqini qo‘llash masalasi faqat uning ayrim normalari yoki institutlaridan foydalanish bilan chegaralanmaydi. Bunda ingliz huquqining yuridik kuchi, qo‘llanish chegaralari, markaz hujjatlari va mezbon davlat qonunchiligi bilan o‘zaro nisbati hamda maxsus sudlar tomonidan talqin qilinishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Ingliz huquqini joriy etish modelining shakllanishiga markaz joylashgan davlatning huquqiy tizimi ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Xususan, markaz tashkil etilishidan oldin mamlakatda ingliz huquqi elementlari mavjud bo‘lganligi, davlatning konstitutsiyaviy tuzilishi, huquq manbalari tizimi va sud pretsedentiga munosabati maxsus yurisdiksiyada *common law* qoidalarini qo‘llash usulini belgilaydi. Shu jihatdan, “Ingliz huquqining xalqaro moliya markazlarida qo‘llanishini o‘rganishda qaysi huquqiy elementlar, qanday normativ asosda, qaysi doirada va qanday institutsional mexanizm orqali joriy etilgan?” degan savollarga javob topish talab etiladi.

Mazkur masala Toshkent xalqaro moliya markazini tashkil etish munosabati bilan O‘zbekiston uchun ham alohida ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 30-martdagi “Toshkent xalqaro moliya markazini tashkil etish to‘g‘risida”gi PF–48-son Farmonida Markaz hududida maxsus huquqiy rejimni joriy etish, Angliya va Uels umumiy huquqi hamda odil sudlov huquqi prinsiplarini qo‘llash nazarda tutilgan (President of the Republic of Uzbekistan, 2026). 2026-yil 13-iyuldagi “Toshkent xalqaro moliya markazi to‘g‘risida”gi O‘RQ–1158-son Konstitutsiyaviy qonunda esa Markazning huquqiy maqomi va unda amal qiladigan huquq manbalari belgilangan (Republic of Uzbekistan, 2026). Ushbu qoidalarning mazmunini ilmiy baholash, avvalo, xorijiy xalqaro moliya markazlarida ingliz huquqini joriy etish va qo‘llashning mavjud modellarini aniqlashni talab qiladi.

Mavjud ilmiy tadqiqotlarda *common law* asosida faoliyat yurituvchi maxsus yurisdiksiyalar, ingliz huquqining maxsus iqtisodiy hududlarda qo‘llanishi hamda alohida xalqaro moliya markazlarining institutsional rivojlanishi tadqiq etilgan. Biroq ingliz huquqini joriy etishdan oldingi milliy huquqiy sharoit, uni qo‘llash uchun yaratilgan normativ asoslar, qo‘llanadigan huquq manbalarining iyerarxiyasi va maxsus sudlarning vakolatlarini yagona mezonlar asosida qiyoslash masalasi kompleks tadqiqotni talab qiladi.

Ushbu maqolaning maqsadi DIFC, ADGM, AIFC misolida ingliz huquqini joriy etish va qo‘llash modellarini, ularning huquqiy asoslari, manbalari, qo‘llanish doirasi hamda maxsus sudlar vakolatlarini qiyosiy-huquqiy tahlil qilishdan iborat.

Asosiy qism

Ilmiy adabiyotlarda xalqaro moliya markazlarida ingliz huquqini qo‘llash huquqiy o‘zlashtirish va uni institutsional jihatdan ta’minlash nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqiladi. I. Bantekas (2022) uchta modelni ajratadi: ingliz qonun hujjatlarini maxsus iqtisodiy zonalar huquqiga kiritish, ingliz huquqini subsidiar qo‘llash hamda umumiy huquq an’analari asosida faoliyat yurituvchi sudyalar orqali uni bilvosita joriy etish. Mazkur tasnif huquqiy o‘zlashtirishning turli mexanizmlarini ochib beradi va ingliz huquqining rasman mustahkamlanishi bilan amalda qo‘llanishi o‘rtasidagi farqlarni hisobga olish imkonini beradi. ADGM huquq tizimiga bag‘ishlangan tadqiqotida ushbu olim huquqiy o‘zlashtirishning samaradorligi ixtisoslashtirilgan sudning tashkil etilishi, sudyalarning kasbiy tajribasi hamda Angliya va Uels

sud amaliyoti bilan doimiy aloqani saqlashda, deya hisoblaydi (Bantekas, 2023). H. Yang va hammualliflari AIFC tajribasini tahlil qilib, ingliz huquqi normalarini o‘zlashtirishning o‘zi milliy huquqiy tartibga solishga nisbatan ustunlikni kafolatlamasligini, ularni sharhlash, qo‘llash va ijrosini ta’minlash muhim ahamiyatga ega ekanini ta’kidlaydilar (Yeung et al., 2020). Mazkur yondashuvlarni qiyoslash ingliz huquqini joriy etishning normativ mexanizmlari va uning amal qilishining institutsional shart-sharoitlarini farqlash imkonini beradi.

Dubay xalqaro moliya markazida ingliz huquqini joriy etish va qo‘llash modeli

Dubay xalqaro moliya markazida (DIFC) ingliz huquqining qo‘llanishi Birlashgan Arab Amirliklarining tarixiy va huquqiy rivojlanishi bilan bog‘liq. BAA federativ davlat bo‘lib, uning huquq tizimida federal qonunchilik bilan bir qatorda alohida amirliklarning qonunchilik va sud vakolatlari ham saqlangan. Mamlakatning xususiy huquqi islom huquqi hamda Misr huquqi orqali fransuz kontinental huquqi ta’sirida shakllangan kodifikatsiyalashgan qonunchilikka asoslanadi. Xususan, 1985-yildagi Federal Fuqarolik muomalalari to‘g‘risidagi qonun va 1993-yildagi Tijorat muomalalari to‘g‘risidagi qonun xususiy-huquqiy munosabatlarning asosiy manbalari hisoblangan (United Arab Emirates, 1985). Mazkur tizimda sud pretsedenti mustaqil huquq manbasi sifatida tan olinmagan. Shu sababli DIFCda ingliz huquqining qo‘llanishi avvaldan mavjud *common law* tizimining davomi emas, balki kontinental huquq tizimi doirasida yaratilgan maxsus huquqiy rejim hisoblanadi.

DIFCni tashkil etish uchun BAAning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari o‘zgartirilgan. BAA Konstitutsiyasining 121-moddasiga 2004-yilda kiritilgan o‘zgartirish Federatsiyaga moliyaviy erkin zonalarni tashkil etish va ularda ayrim federal qonunlarning amal qilishini istisno etish vakolatini bergan (United Arab Emirates, 1971). Keyinchalik qabul qilingan 2004-yildagi 8-son Federal qonun moliyaviy erkin zonalarda federal fuqarolik va tijorat qonunlarini qo‘llamaslik imkonini belgilagan, biroq jinoyat qonunchiligi va boshqa umummajburiy federal normalar o‘z kuchini saqlab qolgan (United Arab Emirates, 2004).

Mazkur huquqiy asoslar DIFCga BAA suverenitetidan tashqaridagi mustaqil hudud maqomini bermaydi. Markaz BAA va Dubay Amirligi yurisdiksiyasi doirasida qolgan holda fuqarolik va tijorat munosabatlarini alohida tartibga solish vakolatiga ega maxsus yurisdiksiya hisoblanadi. DIFCning huquqiy maqomi Dubayning 2004-yildagi 9-son qonuni bilan belgilangan bo‘lib, unga muvofiq Markazning boshqaruv, moliyaviy nazorat va mustaqil sud organlari tashkil etilgan (Emirate of Dubai, 2004a). DIFC sud tizimining maqomi esa Dubayning 2004-yildagi 12-son qonuni bilan mustahkamlangan (Emirate of Dubai, 2004b). Demak, DIFC ikki bosqichli mexanizm asosida tashkil etilgan: federal darajada maxsus huquqiy rejimga ruxsat berilgan, Amirlik darajasida esa markazning maqomi, organlari va sud tizimi belgilangan.

DIFCda ingliz huquqi BAA hududidagi barcha munosabatlarga emas, faqat Markaz vakolatiga kiruvchi fuqarolik va tijorat munosabatlariga nisbatan qo‘llanadi. Jinoyat huquqi, immigratsiya, fuqarolik holati va federal vakolatga kiruvchi boshqa masalalar BAA qonunchiligi bilan tartibga solinadi. Shu jihatdan DIFC BAA milliy huquq tizimini ingliz huquqi bilan almashtirmaydi, balki hududiy va predmet jihatdan cheklangan maxsus yurisdiksiya sifatida faoliyat yuritadi.

DIFCda huquq manbalarining asosiy qismini *common law* institutlari asosida ishlab chiqilgan Markazning o‘z qonunlari va normativ hujjatlari tashkil etadi. Shartnoma, kompaniyalar, to‘lovga qobiliyatsizlik, bandlik, ma’lumotlarni himoya qilish, trast va arbitrajga oid munosabatlar DIFC qonunlari bilan tartibga solinadi. Biroq bu Angliya qonunlarining markaz hududida avtomatik ravishda amal qilishini anglatmaydi.

DIFCning 2004-yildagi 3-son “Fuqarolik va tijorat qonunlarini qo‘llash to‘g‘risida”gi qonuniga ko‘ra, muayyan munosabatni tartibga soluvchi DIFC qonuni mavjud bo‘lsa, birinchi navbatda aynan shu qonun qo‘llanadi (Dubai International Financial Centre, 2004). Masala markaz hujjatlarida to‘liq tartibga solinmagan hollarda taraflar tanlagan huquq, tegishli DIFC qonunida nazarda tutilgan yurisdiksiya huquqi yoki nizoga eng yaqin aloqador davlat huquqiga murojaat qilinadi. Ushbu mezonlar asosida qo‘llanadigan huquqni aniqlash imkoni bo‘lmasa, Angliya va Uels huquqi subsidiar manba sifatida qo‘llanadi.

DIFC sudlari Markaz qonunlarini sharhlashda sud pretsedentlari, odil sudlov huquqi prinsiplari va boshqa *common law* yurisdiksiyalarining sud amaliyotidan foydalanadi. Angliya sudlarining qarorlari DIFC sudlari uchun avtomatik ravishda majburiy bo‘lmay asosan ishontiruvchi manba vazifasini bajaradi. DIFCning o‘z yuqori instansiya sudi qarorlari esa markaz sud amaliyotining izchilligini ta’minlaydi. Shunday qilib, DIFC modeli markazning o‘z qonunlari birlamchi, Angliya va Uels huquqi subsidiar, xorijiy sud pretsedentlari esa ishontiruvchi manba hisoblanadigan avtonom-subsidiar model sifatida tavsiflanadi.

Abu Dabi global bozorida ingliz huquqini bevosita va dinamik qo‘llash modeli

Abu Dabi global bozorida (ADGM) ingliz huquqini qo‘llash mexanizmi Birlashgan Arab Amirliklarining huquqiy tizimi xususiyatlari bilan bog‘liq. ADGM tashkil etilishidan oldin BAAning xususiy huquqi islom huquqi hamda Misr huquqi orqali fransuz kontinental huquqi ta’sirida shakllangan kodifikatsiyalashgan qonunchilikka asoslangan. Fuqarolik va tijorat munosabatlari asosan 1985-yildagi “Federal Fuqarolik muomalalari to‘g‘risida”gi qonun va 1993-yildagi “Federal Tijorat muomalalari to‘g‘risida”gi qonun bilan tartibga solingan. Mazkur tizimda sud qarorlari mustaqil va umummajburiy huquq manbasi sifatida tan olinmagan. Binobarin, ADGMda ingliz huquqining qo‘llanishi avvaldan mavjud *common law* tizimining davom ettirilishi emas, balki maxsus hududda yangi huquqiy tartibning yaratilishi hisoblanadi.

BAA Konstitutsiyasining 121-moddasi Federatsiyaga moliyaviy erkin zonalarni tashkil etish va ularda ayrim federal qonunlarning amal qilishini istisno etish vakolatini beradi. Ushbu konstitutsiyaviy norma asosida qabul qilingan 2004-yildagi 8-son Federal qonun moliyaviy erkin zonalarda federal fuqarolik va tijorat qonunlarini qo‘llamaslik imkonini yaratgan. ADGM 2013-yildagi “Abu-Dabi Amirligida moliyaviy erkin zona tashkil etish to‘g‘risida”gi 15-son Federal dekret asosida moliyaviy erkin zona sifatida tashkil etilgan, Abu Dabi Amirligining 2013-yildagi 4-son qonuni bilan esa markazning maqomi, hududi, organlari va sud tizimi belgilangan (United Arab Emirates, 2013).

ADGM BAA suverenitetidan tashqaridagi mustaqil hudud emas, balki fuqarolik va tijorat munosabatlari bo‘yicha normativ hamda sud vakolatlariga ega maxsus yurisdiksiyadir. Jinoyat huquqi, immigratsiya, fuqarolik, davlat xavfsizligi va federal vakolatga kiruvchi boshqa masalalarda BAA qonunchiligi amal qilishda davom etadi. Shu sababli ADGMning huquqiy alohidaligi hududiy va muayyan huquqiy munosabatlar doirasiga ko‘ra cheklangan. U bir davlat doirasida turli huquqiy rejimlarning parallel amal qilishiga asoslangan huquqiy plyuralizm ko‘rinishidir.

ADGM modelining asosiy xususiyati “Ingliz huquqini qo‘llash to‘g‘risidagi 2015-yilgi qoidalar”da mustahkamlangan. Uning 1-moddasiga ko‘ra, Angliya umumiy huquqi, shu jumladan, odil sudlov huquqi prinsiplari vaqt davomida o‘zgarib boradigan holatida ADGM huquqining tarkibiy qismi sifatida amal qiladi (Abu Dhabi Global Market, 2015). Demak, ingliz umumiy huquqi tashqi yoki subsidiar manba emas, balki bevosita ADGM huquq tizimining ichki manbasi hisoblanadi. Uni qo‘llash uchun tegishli qoida markazning

alohida normativ hujjatida takroran mustahkamlanishi talab etilmaydi.

Angliya sudlarining qarorlari ingliz umumiy huquqi qoidalarining mazmunini aniqlashda katta ahamiyatga ega bo‘lsada, ular ADGM sudlari uchun Angliyadagi kabi avtomatik tarzda majburiy pretsedent hisoblanmaydi. ADGM sudi Angliya sud amaliyotiga murojaat qilish bilan birga, o‘zining instansiyaviy iyerarxiyasi va sud amaliyotini ham shakllantiradi. Shu tariqa ADGM modeli ingliz umumiy huquqi va odil sudlov huquqi prinsiplarini bevosita hamda dinamik qo‘llashga asoslanadi. Bu jihati bilan u markaz qonunlarini birlamchi, Angliya va Uels huquqini esa subsidiar manba sifatida belgilagan DIFC modelidan farq qiladi.

Ostona xalqaro moliya markazida ingliz huquqiga asoslangan vositali va moslashtirilgan model

Ostona xalqaro moliya markazida (AIFC) ingliz huquqining qo‘llanishi Qozog‘iston huquqiy tizimining xususiyatlari bilan bog‘liq. AIFC tashkil etilishidan oldin mamlakat huquq tizimi roman-german huquqiy oilasiga mansub postsovet tizimi sifatida shakllangan bo‘lib, unda normativ-huquqiy hujjatlar asosiy huquq manbasi hisoblangan, alohida ishlar bo‘yicha sud qarorlari esa umummajburiy pretsedent sifatida tan olinmagan. Shu sababli AIFCda ingliz huquqiga asoslangan tartibning yaratilishi milliy huquqiy an’ananing davomi emas, balki xorijiy investorlar uchun alohida huquqiy muhit yaratishga qaratilgan institutsional yechimdir.

AIFCning huquqiy asoslari Qozog‘iston Respublikasining 2015-yil 7-dekabrdagi 438-V-son “Ostona xalqaro moliya markazi to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy qonuni bilan belgilangan. Mazkur qonun AIFCning maqomi, faoliyatining asosiy prinsiplari, organlari hamda markaz hududida amal qiladigan huquq manbalarini mustahkamlagan (Republic of Kazakhstan, 2015). Shundan keyin, Qozog‘iston Respublikasining 2017-yil 10-martdagi 51-VI-son qonuni asosida Konstitutsiyaning 2-moddasi 3-1-band bilan to‘ldirilib, Ostona shahri hududida moliya sohasidagi alohida huquqiy rejim Konstitutsiyaviy qonunga muvofiq belgilanishi mumkinligi nazarda tutilgan (Republic of Kazakhstan, 2017). Shu tariqa, dastlab Konstitutsiyaviy qonun bilan belgilangan AIFCning maxsus huquqiy rejimi 2017-yilda bevosita konstitutsiyaviy asosga ega bo‘lgan. AIFC Qozog‘iston Respublikasidan ajralgan yoki alohida suveren huquq tizimi emas. U Qozog‘iston Konstitutsiyasi va AIFC to‘g‘risidagi Konstitutsiyaviy qonun doirasida faoliyat yuritadigan, o‘ziga xos huquq manbalari hamda Qozog‘istonning umumiy sud tizimiga kirmaydigan mustaqil sudiga ega maxsus huquqiy rejimdir.

Konstitutsiyaviy qonunning 4-moddasiga ko‘ra, AIFCning amaldagi huquqi Qozog‘iston Konstitutsiyasi, mazkur Konstitutsiyaviy qonun, AIFC organlarining hujjatlari hamda belgilangan doirada Qozog‘iston qonunchiligidan tashkil topadi. Bunda AIFC hujjatlari maxsus fuqarolik, tijorat va moliyaviy munosabatlarni tartibga soladi, Qozog‘iston qonunchiligi esa ushbu hujjatlarda tartibga solinmagan va markazning maxsus rejimiga zid bo‘lmagan masalalarga nisbatan qo‘llanadi.

AIFC hujjatlari Angliya va Uels huquqining prinsiplari, qonunchiligi va sud pretsedentlariga asoslanishi mumkin. Biroq ingliz huquqi AIFCda avtomatik ravishda amal qiladigan mustaqil huquq manbasi emas: uning tegishli norma va institutlari AIFC organlari qabul qiladigan hujjatlar orqali markaz huquqiga kiritiladi. Demak, ingliz huquqi normativ vositachilik asosida Qozog‘istonning konstitutsiyaviy tuzilishi va markaz ehtiyojlariga moslashtirilgan holda qo‘llanadi.

Ostona xalqaro moliya markazi Sudi reglamentining 29-moddasiga ko‘ra, AIFC sudi nizolarni markazning amaldagi huquqi asosida hal qiladi hamda boshqa *common law* yurisdiksiyalarining yakuniy sud qarorlarini inobatga olishi mumkin (Astana International Financial Centre, 2017). Mazkur qarorlar majburiy pretsedent emas, balki huquq

normalarini sharhlashda ishontiruvchi manba hisoblanadi. AIFC sudi Qozog‘iston sud tizimiga kirmaydigan mustaqil sud bo‘lsa-da, uning vakolati markaz bilan bog‘liq fuqarolik va tijorat nizolari bilan cheklanadi. Shunga ko‘ra, AIFC modeli ingliz huquqiga asoslangan, biroq milliy huquqiy muhitga normativ vositalar orqali moslashtirilgan maxsus yurisdiksiya modeli sifatida tavsiflanadi.

Xulosa

Qiyosiy-huquqiy tahlil ingliz huquqini qo‘llashning uchta modelini ko‘rsatdi: DIFC-da markaz qonunlari birlamchi, Angliya va Uels huquqi subsidiar manba hisoblanadi; ADGMda ingliz umumiy huquqi va odil sudlov huquqi prinsiplari bevosita va dinamik qo‘llanadi; AIFCda esa ular markaz hujjatlarini ishlab chiqish va sharhlash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Ilmiy-nazariy jihatdan xalqaro moliya markazlarida ingliz huquqini qo‘llashni mezbon davlat huquq tizimini o‘zgartirish sifatida emas, balki milliy huquq tizimi doirasida hududiy va huquqiy munosabatlar doirasiga ko‘ra cheklangan maxsus huquqiy tartibni shakllantirish sifatida baholash taklif etiladi. Ingliz huquqining qo‘llanish usuliga ko‘ra, mazkur modellarni: 1) avtonom-subsidiar model; 2) bevosita-dinamik model; 3) vositali-moslashtirilgan model sifatida tasniflash mumkin. Ushbu tasnifning asosiy mezonlari ingliz huquqining yuridik kuchi, qo‘llanish doirasi, maxsus yurisdiksiya huquq manbalari tizimidagi o‘rni va sud pretsedentlarining maqomidan iborat.

Toshkent xalqaro moliya markazi uchun DIFC va AIFC elementlarini birlashtirgan vositali-moslashtirilgan modelni qo‘llash maqsadga muvofiq. Bunda markaz hujjatlari asosiy huquq manbasi bo‘lib, ingliz huquqining zarur institutlari ularga moslashtirib kiritilishi lozim. Xorijiy *common law* sudlari qarorlaridan ishontiruvchi manba sifatida foydalanish, markaz yuqori instansiya sudi qarorlariga esa majburiy kuch berish taklif etiladi.

Shuningdek, ingliz huquqini qo‘llash uchun sudyalar, advokatlar va moliyaviy regulyator xodimlarini *common law* metodologiyasi, odil sudlov huquqi prinsiplari hamda sud pretsedentlari bilan ishlash bo‘yicha maxsus tayyorlash tizimini tashkil etish lozim. Toshkent xalqaro tijorat sudi qarorlarini muntazam e’lon qilish, tizimlashtirish va ular asosida markazning sud amaliyoti sharhlarini tayyorlash ham huquqni bir xilda qo‘llashga xizmat qiladi.

REFERENCES

Abu Dhabi Global Market. (2015, March 3). *Application of English Law Regulations 2015*.

Astana International Financial Centre. (2017). *AIFC Court Regulations 2017*. https://aifc.kz/legal-framework/aifc-court-regulations-2017/

Bantekas, I. (2022). Transplanting English law in special economic zones in Asia: Law as commodity. *Asian Journal of Comparative Law, 17*(2), 305–322. https://doi.org/10.1017/asjcl.2022.19

Bantekas, I. (2023). The Abu Dhabi Global Market and its transplant of English private law. *The Chinese Journal of Comparative Law, 11*(2), Article cxad007. https://doi.org/10.1093/cjcl/cxad007

Bell, T. W. (2021). Common law zones: An illustrated review. *Journal of Special Jurisdictions*, *1*(2), 57–106.

Dubai International Financial Centre. (2004, September 16). *On the application of civil and commercial laws in the DIFC (Law No. 3)*. https://www.difc.com/business/laws-and-regulations/legal-database/difc-laws/law-application-civil-and-commercial-laws-difc-difc-law-no-3-2004

Emirate of Abu Dhabi. (2013). *On concerning Abu Dhabi Global Market* (Law No. 4). https://www.adgm.com/legal-framework/abu-dhabi-legislation

Emirate of Dubai. (2004a, September 13). *On respect of the Dubai International Financial Centre* (Law No. 9). Dubai Government Legislation. https://dlp.dubai.gov.ae/Legislation%20Reference/2004/Law%209%20of%202004.html

Emirate of Dubai. (2004b). *On respect of the Judicial Authority at Dubai International Financial Centre (Law No. 12)*. RealLaw. https://app.reallaw.ai/ru/legal-table/doc/dubai-law-no-12-of-2004-in-respect-of-the-judicial-authority-at-dubai-1327

United Arab Emirates. (2013). Concerning establishing a financial free zone in the Emirate of Abu Dhabi (Federal Decree No. 15 of 2013). Abu Dhabi Global Market.

President of the Republic of Uzbekistan. (2026). *On the establishment of the Tashkent International Financial Center* (Decree No. DP-48). Lex.uz. https://www.lex.uz/uz/docs/-8103316

Republic of Kazakhstan. (2017). On introducing amendments and additions to the Constitution of the Republic of Kazakhstan (Law No. 51-VI ZRK). Adilet Legal Information System. https://adilet.zan.kz/eng/docs/Z1700000051

Republic of Kazakhstan. (2015, December 7). *On the Astana International Financial Centre* (Constitutional Law No. 438-V LRK). Adilet.zan.kz. https://adilet.zan.kz/eng/docs/Z1500000438

Republic of Uzbekistan. (2026, July 13). *On Tashkent International Financial Centre* (Law No. LRU-1158). Lex.uz. https://lex.uz/uz/docs/-8323797

United Arab Emirates. (1971). *The Constitution of the United Arab Emirates*. United Arab Emirates Legislations. https://uaelegislation.gov.ae/en/constitution

United Arab Emirates. (1985, December 15). *On Civil Transactions* (Federal Law No. 5). UAE Legislation.

United Arab Emirates. (1993, September 7). *On the Commercial Transactions* (Federal Law No. 18). Ministry of Economy.

United Arab Emirates. (2004). *On concerning financial free zones* (Federal Law No. 8). United Arab Emirates Legislations. https://uaelegislation.gov.ae/en/legislations/1981

United Arab Emirates. (2013, February 11). *On concerning the establishment of a financial free zone in the Emirate of Abu Dhabi* (Federal Decree No. 15). https://www.adgm.com/legal-framework/federal-legislation

Yeung, H., Huang, F., Bekmurzayeva, Z., & Janaidar, D. (2020). Institutional development and the Astana International Financial Center in Kazakhstan. *Washington University Global Studies Law Review, 19*(1), 53–83. https://journals.library.wustl.edu/globalstudies/article/id/580/

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2026-YIL 5-SON

VOLUME 6 / ISSUE 5 / 2026

DOI: https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.65

DOI: https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence